

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboyev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Toirov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabiyev</b>	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Арслонзода</b>	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
<b>X.T.Мирзаев</b>	
Талқини рукноҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO‘K: 930.2(575.171)“18/20”

**ARAB TARIXSHUNOSLIGIDA XIX ASR OXIRIDA MARKAZIY OSIYODAGI SIYOSIY JARAYONLAR VA ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINING O‘RGANILISHI****ИЗУЧЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ВТОРЖЕНИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В КОНЦЕ XIX ВЕКА В АРАБСКОЙ ИСТОРИОГРАФИИ****THE STUDY OF POLITICAL PROCESSES IN CENTRAL ASIA AND THE RUSSIAN EMPIRE'S INVASION IN THE LATE 19TH CENTURY IN ARAB HISTORIOGRAPHY****Olimov Ulug‘bek Nusratullo ug‘li**

Fanlar akademiyasi Tarix instituti, kichik ilmiy xodimi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada arab davlatlarida Markaziy Osiyoning XIX asrdagi tarixi, jumladan mintaqadagi geosiyosiy vaziyat, xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, Rossiya imperiyasi bosqini va uning oqibatlarining o‘rganilishi haqida so‘z boradi. Arab tarixshunosligida Turkiston mintaqasi haqidagi tasavvurlar, uning geografik hududi, aholisi, siyosiy va tarixiy jarayonlarning yoritilishi ham keltirilgan. Arab davlatlaridagi Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonning bu davr tarixini o‘rganilishi sabablari, arab olimlarining manbaviy asoslari, siyosiy voqealarga bo‘lgan munosabatlari tahlil qilingan. Markaziy Osiyodagi xonliklarning hukmdorlari va ularning shaxsiyati ham arab olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, davriylik (xronologik) tarzda asarlarda bayon qilingan. Arab davlatlarida tarixiy jarayonni yoritishdagi o‘ziga xos uslublar, xulosalar tadqiq qilingan.

**Аннотация**

В данной статье рассматривается история Центральной Азии в арабских государствах в XIX веке, включая геополитическую ситуацию в регионе, взаимоотношения между ханствами, вторжение Российской империи и исследование его последствий. В арабской историографии также освещены представления о Туркестанском крае, его географическом пространстве, населении, политических и исторических процессах. Анализируются причины изучения истории Центральной Азии в арабских странах, в том числе в Узбекистане, источники арабских ученых, их связь с политическими событиями. Правители ханства в Средней Азии и их личности также изучались арабскими учеными и описывались в трудах в хронологическом порядке. Исследованы уникальные методы и выводы освещения исторического процесса в арабских странах.

**Abstract**

This article examines the history of Central Asia in the Arab states in the 19th century, including the geopolitical situation in the region, the relationship between the khanates, the invasion of the Russian Empire and the study of its consequences. Arab historiography also covers ideas about the Turkestan region, its geographical space, population, political and historical processes. The reasons for studying the history of Central Asia in Arab countries, including Uzbekistan, the sources of Arab scientists, and their connection with political events are analyzed. The rulers of the Khanate in Central Asia and their personalities were also studied by Arab scholars and described in works in chronological order. Unique methods and conclusions of covering the historical process in Arab countries are explored.

**Kalit so‘zlar:** Turon, Turkiston, Markaziy Osiyo, mang‘itlar, qo‘ng‘irotlar, minglar, Rossiya imperiyasi, xonliklar.**Ключевые слова:** Туран, Туркестан, Средняя Азия, Мангыты, Кунграты, Минги, Российская Империя, Ханства.**Key words:** Turan, Turkestan, Central Asia, Mangyty, Kungraty, Mingi, Russian Empire, Khanates.**KIRISH**

XVIII asr va XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi “xonliklar davri” yoki “uch xonlik” davri deb nomlanadi. Bu vaqtda Turkiston mintaqasida Buxoro xonligi, Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi mavjud edi. Yagona davlatning bunday qismlarga bo‘linib ketishi va markazlashgan hokimiyatning mavjud emasligi, mintaqadagi geosiyosiy vaziyatning ham murakkablashuviga olib keladi. Xonliklar o‘rtasidagi yagona ittifoqning tashkil topmaganligi, tashqi kuchlarning aralashuvi, ilmiy va texnik jihatdan ortda qolganligi Turkiston hududiga mustamlakachi kuchlarning kirib kelishiga sabab bo‘ladi. Bu davr tarixi arab davlatlarida ham tadqiq etilgan bo‘lib,

## TARIX

unda asosan Turkistonga Rossiya imperiyasining bosqini sabablari va oqibatlarini bayon etiladi. Arab tadqiqotlarida mintaqaga nisbatan "Turkiston" atamasi qo'llanilgan. Arab olimlarining ko'pchilik qismi Turkiston hududini geografik va siyosiy jihatidan to'rtta qismga bo'lib o'rganishadi. Sharqiy, g'arbiy, shimoliy va janubiy Turkiston. Hozirgi O'zbekiston hududi G'arbiy Turkiston qismiga kiritiladi. Shu sababdan, aynan o'sha davr tarixini yoritishda arab davlatlaridagi ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston yoki O'rta Osiyo o'rnida G'arbiy Turkiston atamasi ham qo'llaniladi. Tarixning boshqa davrlariga nisbatan aynan shu davri arab davlatlarida yaxshi tadqiq qilingan. Siyosiy jarayonlar, ijtimoiy va iqtisodiy hayot, harbiy tarix bilan birgalikda Islom dinining ham mintaqadagi o'rni tahlilga totilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Turon (Turkiston) mintaqasining shu davrga oid arab davlatlaridagi ilk tadqiqotlar XX asr oxiri va XXI asr boshlarida olib borilgan. Adabiyotlarining aksariyati bir xil uslubda yoziladi. Dastlab, Turkiston mintaqasining geografik joylashuvi, aholisi, iqlimi haqida qisqa ma'lumotlar berilib, undan so'ng tarixiy voqealar davriylik tarzida ketma-ketlikda bayon etiladi. Qadimgi va o'rta asr tarixining muhim voqealari va tarixiy shaxslari haqida ham qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Rossiya imperiyasining bosqini keskin tarzda qoralanadi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Turon (Turkiston) hududiga Rossiya imperiyasining bosqini haqida gap ketganida, milliy tarixchilarimiz asosan XIX asrdan boshlangan jarayonni nazarda tutdilar, Arab davlatlarida Rossiyaning Turkistonga bosqini davri XVI asrdan boshlab hisoblanadi. Qrim xonligi, Sibir xonligi, Kavkaz hududlarining Rossiya tomonidan bosib olinish jarayoni geografik jihatidan Shimoliy Turkistonning bosib olinishi deb tushuniladi.

Arab davlatlarida ham G'arbiy Turkiston, ham Sharqiy Turkiston hududi tarixi birdek tadqiq etilgan bo'lib, ularning aksariyat qismi XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga to'g'ri keladi [1; 2; 3; 4]. Turon tarixiga bo'lgan qiziqish, ushbu mavzuda ilmiy tadqiqot olib borish asosan bu o'lkadagi aholining asosiy qismi Islom diniga e'tiqod qilishi va XIX asr va XX asrda Turkistondan ko'chib o'tgan oilalarning vakillari bu mintaqa tarixini yozishi bilan bog'liqdir. Aksariyat arab tilidagi Turon tarixiga oid asarlar yozilish tartibi bir-biriga o'xshash. Qadimgi davrdan boshlab hozirgi kunga qadar qisqacha tarix bayon etiladi. Turkiston eng yirik shaharlariga qisqacha ta'rif beriladi. Islomning kirib kelganidan keyingi davr esa batafsilroq yoritiladi. Juda ko'p tarixiy jarayonlarning o'zgarishini aynan Islom dini bilan bog'lashga harakat qilinadi.

Arab davlatlarida Turkistonga oid tadqiqotlarning yana bir o'ziga xos jihati Turkiyada nashr qilingan shu mavzudagi adabiyotlarning tarjimasidan ko'proq foydalanilganidir.

Arab davlatlarida mintaqaga ta'rif berilganida "Turkiston (Turon) aholisi turkiy tilda so'zlashuvchi ekanligi, aksariyat qismi Islom diniga e'tiqod qilishi nazarda tutiladi. Geografik hududi: g'arbda Ural daryosi va Kaspiy dengiziga qadar, sharqda Xitoygacha, shimolda Sibir va Mug'uliston, janubda Eron, Afg'oniston, Hindiston va Tibetgacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. Umumiy maydoni (5 607 013) kilometr kvadratni tashkil etadi [5: 17].

Arab davlatlaridagi ilmiy tadqiqotlarda Turkistondagi bu davr afsus va nadomat bilan tilga olinadi. Rossiya imperiyasining bosqini keskin qoralanadi. Turkiy xaqqlarining yagona tarixi, madaniyati, dini va urf-odatlarini oyoqosti qilinganligi ta'kidlanadi. Mintaqadagi rus imperiyasi va sovet davri siyosati aksariyat adabiyotlarda keskin qoralanadi [6: 121]. Arablar Turkistonni Rossiya bosib olishiga qizg'anish hissi bilan qaraydilar. Arab alifbosiga asoslangan yozuvning yo'q bo'lishi, arab tilidagi asarlarning yo'q qilinishi, islom diniga qarshi kurashlar salbiy jihatdan o'rganiladi.

Turkistonning ayni shu davr tarixi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi Mahmud Shokir bo'lib, bir nechta asarlar muallifidir [6].

Mintaqaga nisbatan "Turkiston" so'zi bilan birga "Turon" nomining ham ishlatilishini bir nechta risolalarda uchratish mumkin. Aksariyat arab tarixchilari Rossiya imperiyasining bosqiniga qadar Turon tarixi, undan keyingi davrni esa Turkiston tarixi deb ataydilar [5: 7-8]. Bu jihatdan Turkiston atamasining qo'llanilish davriga e'tiroz bildirish mumkin. Sababi, VII asrga oid arxeologik topilmalar va yozuvlarda bu hududga nisbatan "Turkiston" atamasi ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Abdulmo'min Saidakrom aynan "Turon" atamasiga ta'rif berib, qadimdan bu mintaqada turkiy xalqlar yashab kelganligi, rus bosqini davri, Sovet davri tarixi ham qisqacha bayon qiladi. Turkistonga har tomonlama ijobiy ta'rif berib, Islom dinining rivoji uchun ham bu mintaqaning ulkan

xizmatlarini e'tirof etadi. Muallif Turkistonlik olimlarni ham yodga olib, ularning jahon ilm-fan rivojidadagi o'rnini ham ta'kidlab o'tgan.

Kitobning kirish qismi Turon haqidagi umumiy ma'lumlar bilan boshlanib, mintaqa tarixan yagona xalq, bitta til, bitta madaniyat, bitta din va bitta urf-odat va an'anaga ega bo'lganligi, XIX asrga kelib esa Turkistonning bir qismi Xitoy tomonidan, bir qismi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganligi bayon etiladi. Bundan tashqari muallif tomonidan Turkiston o'lkasining kommunistlar tomonidan milliy hududiy chegaralanishga tortilishi ham qoralanadi [5: 9].

Mazkur kitobda Turon tarixidagi sulolalar xronologik tartibda qisqacha tarixi bayon etilgan bo'lib, Buxoro xonligi, Qo'qon xonligi, Xiva xonligi tarixiga ham to'xtalib o'tilgan. Jumladan, Rossiya bosqiniga qarshi turish uchun 3 ta xonlikning birlasha olmaganligi, Buxoro va Qo'qon xonlari o'rtasidagi o'zaro urushlar, Mallaxon, Xudoyorxon va Amir Muzaffarning salbiy munosabatlari natijasi Rossiyaga qaramlik bilan tugaganligi yozib o'tilgan. Har safar Amir Muzaffar yordamga kech qolganligi, rus armiyasining zamonaviy qurollardan foydalanganligi ham e'tirof etilgan [5: 82-83].

Turkiston o'lkasining zaiflashuvi XVI asrdan boshlanib, ular bir nechta qismlarga bo'linib ketgan edi. Ularda birlik, o'zaro yaqin aloqalar va harbiy jihatdan qo'llovning yo'qligi sabab bo'lganligi kitobda ko'rsatiladi. Arab tadqiqotchisi Qozon va Sibir xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishini ham, Turkistonning bir qismini yo'qotilishi sifatida qaraydi. Bu hududlar arab olimlari tomonidan Shimoliy Turkiston deb ataladi.

Ushbu kitobda Sharqiy Turkistonning Xitoy tomonidan bosib olinishiga ham katta urg'u beriladi. Turkistonning tarixiy hududlaridan ayrilishida Xitoy va Rossiyaning o'rni teng miqdorga ko'rsatiladi. Markaziy Osiyodagi ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor rus bosqiniga qaratilib, Xitoy masalasi kam yoritiladi. Afg'onistonning shimoliy hududlarini arab tarixchilari Janubiy Turkiston deb atashadi. Bu hududlarning qo'ldan ketishini inglizlarga bog'lashadi. Toshkent shahrining bosib olinishida aholining qarshilik ko'rsatishi yuksak baholanadi [5: 78-81].

Mazkur risolada har uchta davlat ham (Buxoro, Xiva, Qo'qon) amirlik tarzida [5: 82-86] (امارة) berilgan. G'arbiy Turkiston ataladigan hududlarga ruslarning bosqini Oqmasjiddan boshlanganligi, uning himoyasida Yoqubbek mardlarcha jang qilgani olqishlanadi. Turkiston, Chimkent mudofaasi haqida ham so'z ketgan. Toshkent bosib olinganidan Qo'qon amiri Xudoyorxon ruslar bilan shartnoma tuzib, ularning himoyasiga o'tganligi bayon etilgan.

Xudoyorxonning ruslar bilan kelishib ish tutishi salbiy jihatdan yoritilgan. Qo'qon xalqi o'z amiriga qarshi bosh ko'targani, ukasi Nasriddinbekni taxtga o'tirishi bayon qilingan.

Xiva xonligining o'sha davrdagi tarixi qisqacha bayon etilgan. XVIII asrdan boshlab Rossiya bu hududlarni o'ziga qo'shib olmoqchi bo'lganligi, bir necha bor harbiy bosqin uyushtirgani yoziladi. Xivadagi madrasalar, masjidlar soni haqida ma'lumotlar bor. Umuman olganda bu asardagi tarixiy voqealarda ilmiy yangilik yo'q. O'zbekistondagi adabiyotlarda yoritilgan voqealar, huddi shu tarzda bayon qilingan.

1873-yilda Rossiya va Angliya o'rtasida Markaziy Osiyoni chegaralarini belgilash haqidagi kelishuv haqida so'z yuritiladi. Muallifning fikricha, Rossiya Xivani to'liq bosib olish rejasi bo'lmagan. Bunga sabab qilib, o'sha paytdagi Angliya tashqi ishlari vaziri graf Grenvil bilan tuzilgan shartnoma ko'rsatiladi. Unga ko'ra, Amudaryoning janubiy qismlari to'liq Angliya nazoratida bo'lishi ko'rsatilgan. Amudaryoning yuqori qismini Rossiya shu shartnoma sababli istilo qilganligi ko'rsatiladi [5: 83].

Har uchta xonlik (Buxoro, Qo'qon, Xiva) ruslar tomonidan bosib olinishi mazkur kitobda bayon etiladi. Undan keyingi davrlar ham: Sovet davri va uning Turkistonda yuritgan siyosati ochib berilgan. Kitobni shartli tarzda uch qismga bo'lishimiz mumkin:

1. Turkiston shaharlarining qisqacha ta'rifi;
2. Tarixiy jarayonlarning xronologik tarzdagi bayoni;
3. Tarixiy shaxslarning hayoti.

Kitobning ikkinchi qismida Turkiston tarixida muhim o'rin tutgan shaxslar, xonlar tarixi qisqacha bayon etiladi. Bunda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonlari hayoti va siyosiy faoliyati keltirilgan. Muallifning o'zi kelib chiqishi Buxoro amirligi mang'itlar oilasidan bo'lganligi sababli, Amir Muzaffar hayoti haqida batafsilroq ma'lumot berilgan. Shuningdek Xudoyorxon, Muhammad Rahimxon (Feruz) haqida ham to'xtalib o'tiladi.

## TARIX

Eng batafsil to'xtalغان sulola bu – Mang'itlar hisoblanadi. Muhammad Rahimdan boshlab ketma-ketlikda hamma amirlar hayoti, siyosiy faoliyati haqida ma'lumotlar berib borilgan.

**XULOSA**

Arab davlatlaridagi Turon (Turkiston) tarixidagi tadqiqotlar bilan tanishish jarayonida, ularning bu davlat tarixiga befarq emasligi, Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olinishi arab davlatlarida salbiy baholanganligi, ayniqsa, Islom diniga bo'lgan munosabatning keskin tarzda yomon tomonga o'zgariganligi qayd etiladi. Turkiylar yashagan ulkan hudud yagona nomada Turon deb atalib, keyinchalik Turkiston nomi qo'llanilgan. Shartli ravishda Turkiston to'rt qismga bo'lib o'rganiladi. Asosiy urg'u Sharqiy va G'arbiy Turkiston hududiga qaratiladi. Rossiya imperiyasi va Xitoyning bu hududlarni mustamlakaga aylantirgani qoralanadi. Umuman olganda, arab davlatlarida Turon tarixiga bo'lgan qiziqish yuqori darjada. Qadimgi davrdan hozirgi davrga qadar kechgan tarixiy jarayonlar haqida arab olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Hattoki, Turonning eng qadimgi davr tarixi haqida sanoqli bo'lsada so'nggi yillarda tadqiqotlar o'tkazilgan [7; 8; 9; 10].

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Muhammad bin Nosir Al-Abudiy يوميات اسما الوصتي (Markaziy Osiyo kundaliklari) Ar-Riyod., 1995. – 314 b.
2. Mahmud ibn Muso ash-Sharif بين الماضي والحاضر (Qadimgi va hozirgi kundagi O'rta Osiyo (Turkiston) olimlari). – Qohira., 2010. – 96 b.
3. Ahmad Adil Kamol الجمهورية الإسلامية في آسيا الوسطى منذ الفتح الإسلامي حتى اليوم (O'rta Osiyodagi davlatlarning islom dini tarqalishidan hozirgi kungacha bo'lgan tarixi). – Qohira., 2006. – 98 b.
4. Abdulmo'min Said Akram أضواء على تاريخ توران تركستان (Turon – Turkiston tarixiga nazar). – Qohira., 1967. – 220 b.
5. Said Abdulmo'min Saidakram. السيد عبد المؤمن السيد أكرم. أضواء على تاريخ توران تركستان (Turon (Turkiston) tarixining muhim voqealari). Iskandariya. 2008.
6. Mahmud Shokir. Turkiston. (تركستان - محمود شاکر). Bayrut. 2017. 121 b.
7. Abulhasan Mahmud Bakriy - عواصم تجارية خلال العصر البرونزي بين مصر الفرعونية وآسيا الوسطى (Bronza davrida Misr va O'rta Osiyo o'rtasidagi savdo munosabatlari) Mélanges offerts à Ola el-Aguizy / Parij, 2015. 351-360 bet.
8. Abulhasan Mahmud Bakriy. ثقافات العصر البرونزي في آسيا الوسطى واتصالاتها مع القربالاحضارات الشرقية والهند (O'rta Osiyoning bronza davri madaniyati va uning Yaqin Sharq va Hindiston bilan aloqalari) Moskva, 2011.
9. Abulhasan Mahmud Bakriy. أسئلة حول العلاقة بين ثقافات إيران وتركمانستان الجنوبية: تفسير الصور الحيوانية على السيراميك ومنتجات الحجر من العصر الحجري الحديث (Eron va Janubiy Turkmanistonning o'zaro madaniy aloqalari: Eneolit davriga oid sopol va keramik buyumlardagi hayvon tasvirlari tahlili) Moskva, 2005.
10. Abulhasan Mahmud Bakriy. "ثقافة جيتون في جنوب آسيا الوسطى" (Ўрта Осиёнинг жанубидаги Жойтун маданияти) Марокаш, 2012.